



RETROSPECTIVE ANALYSIS OF CRIMINAL LAW PROVISIONS PROVIDING FOR EXEMPTION FROM PUNISHMENT

Zhamalova Yulduz Tairovna

Master's student of Karakalpak State University, Nukus, Uzbekistan.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19659732>

ARTICLE INFO

Received: 13th April 2026

Accepted: 19th April 2026

Online: 20th April 2026

KEYWORDS

Exemption from punishment, criminal law, replacement of punishment with a lighter one, parole (early conditional release), criminal code, retrospective analysis, liberalization, principles of humanism, criminal liability, judicial practice.

ABSTRACT

This article provides a retrospective analysis of the history and development stages of the institution of exemption from punishment in criminal legislation. In particular, the specific features of the institutions of replacing punishment with a lighter one and parole (early conditional release), as reflected in the Criminal Codes of 1926, 1959, and 1994, are comparatively examined. The article also highlights the trends of liberalization and further development of these institutions based on the principles of humanism in current legislation. Scientific proposals and conclusions aimed at improving the institution of exemption from punishment are presented.

РЕТРОСПЕКТИВНЫЙ АНАЛИЗ НОРМ УГОЛОВНОГО ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВА, ПРЕДУСМАТРИВАЮЩИХ ОСВОБОЖДЕНИЕ ОТ НАКАЗАНИЯ

Жамалова Юлдуз Тайировна

магистрант Каракалпакского государственного университета, Нукус, Узбекистан.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19659732>

ARTICLE INFO

Received: 13th April 2026

Accepted: 19th April 2026

Online: 20th April 2026

KEYWORDS

Освобождение от наказания, уголовное право, замена наказания более мягким, условно-досрочное освобождение, уголовный кодекс, ретроспективный

ABSTRACT

В данной статье проведён ретроспективный анализ истории и этапов развития института освобождения от наказания в уголовном законодательстве. В частности, сравнительно изучены особенности институтов замены наказания более мягким и условно-досрочного освобождения, закреплённых в Уголовных кодексах 1926, 1959 и 1994 годов. Также освещены тенденции либерализации и совершенствования данных институтов на основе принципов гуманизма в действующем законодательстве. В статье представлены научные предложения и выводы по дальнейшему



анализ, либерализация,
принципы гуманизма,
уголовная
ответственность,
судебная практика.

совершенствованию института освобождения от
наказания.

JAZODAN OZOD QILISHNI NAZARDA TUTUVCHI JINOYAT QONUNI NORMALARINING RETROSPEKTIV TAHLILI

Jamalova Yulduz Tayirovna

Qoraqalpoq davlat universiteti magistranti, Nukus, O'zbekiston.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19659732>

ARTICLE INFO

Received: 13th April 2026

Accepted: 19th April 2026

Online: 20th April 2026

KEYWORDS

Jazodan ozod qilish,
jinoyat huquqi, jazoni
yengilrog'i bilan
almashtirish, muddatidan
ilgari shartli ozod qilish,
jinoyat kodeksi,
retrospektiv tahlil,
liberallashtirish,
insonparvarlik
tamoyillari, jinoiy
javobgarlik, sud amaliyoti.

ABSTRACT

Mazkur maqolada jinoyat qonunchiligida jazodan ozod qilish institutining tarixi va rivojlanish bosqichlari retrospektiv tahlil qilingan. Xususan, 1926, 1959 va 1994 yillarda qabul qilingan Jinoyat kodekslarida jazoni yengilrog'i bilan almashtirish hamda muddatidan ilgari shartli ozod qilish institutlarining o'ziga xos jihatlari qiyosiy o'rganilgan. Shuningdek, amaldagi qonunchilikda ushbu institutlarning liberallashtirish tendensiyalari va insonparvarlik tamoyillari asosida takomillashib borayotgani yoritilgan. Maqolada jazodan ozod qilish institutini yanada takomillashtirish bo'yicha ilmiy taklif va xulosalar keltirilgan.

KIRISH

"Jinoyat qonunchiligi tarixida amaldagi Jinoyat kodeksi qabul qilingan kodekslarning uchinchisi bo'lib, O'zbekiston Respublikasining birinchi Jinoyat kodeksi 1926-yil 16-iyunda qabul qilingan va 1926-yil 1-iyuldan amalga kiritilgan. Ushbu kodeks o'sha vaqtdagi RSFSR kodeksiga asoslangan holda tuzilgan bo'lib, unda o'z vaqtida insonparvarlik g'oyalariga zid ba'zi bir normalar mavjud bo'lib, u qonli repressiyalarni o'tkazishda "huquqiy asos" bo'lganligi bilan xarakterlanadi".

"Muddatli sotsial mudofaa chorasiga hukm etilgan va o'zlarining

tuzalganliklarini ko'rsatgan shaxslarga sud tomonidan belgilangan sotsial mudofaa chorasini muddatining uchdan bir qismi to'ldirganidan so'ng muddatidan ilgari shartli ozod qilinish tatbiq qilinishi mumkin.

Muddatidan ilgari shartli ozod qilish – yo sotsial mudofaa chorasini bundan keyin o'tashdan ozod qilish yoki sud tomonidan belgilangan sotsial mudofaa chorasini yengilroq jazo bilan almashtirishdan iborat bo'ladi.

Ozodlikdan mahrum qilishni axloq tuzatish mehnat lagerlariga tortuvchilarga nisbatan muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilish



mahkumni o'sha mehnat rayonida ozodlikdan mahrum qilishni qolgan muddatida o'rnatish uchun ko'chirish formasida tatbiq qilinadi.

Muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilishni tatbiq etish tartibi SSR Ittifoqining sud muassalari tomonidan hukm qilinuvchilarga nisbatan SSR Ittifoq qonunlari bilan belgilanadi, O'zSSR, boshqa soyuzdosh yoki avtonom respublikalarning sud muassalari tomonidan hukm qilinuvchilarga nisbatan nisbatan O'zSSR ning Axloq, Tuzatish-Mehnat va Jinoyat-protsessual kodeksida belgilangan qoidalar bilan belgilanadi.

Ozodlikdan mahrum qilishni axloq tuzatish mehnat lagerlariga tortayotganlarni muddatidan ilgari shartli ozod qilish tartibi, shu lagerlar to'g'risidagi nizomlar bilan tartibga solinadi.

Agar muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilinuvchi muddatniing o'talmagan qismi ichida ilgarigi jinoyatdan og'irligi kam bo'lmagan yangi jinoyat sodir qilsa, u muddatning o'talmagan qismi yangi og'irligi kam bo'lmagan jinoyat uchun sud tomonidan tayinlangan jazoga qo'shiladi. Agar sotsial mudofaa chorasi sud tomonidan ozodlikdan mahrum qilish belgilangan bo'lsa, ozodlikdan mahrum qilishni umumiy muddati o'n yildan ortiq bo'lishi mumkin emas".

Ushbu kodeksda jinoiy jazolar sotsial mudofaa chorasi deb yuritilgan. O'zbekiston SSRning 1926-yilda qabul qilingan Jinoyat kodeksida nazarda tutilgan jazoni yengilrog'i bilan almashtirish asoslari institutini amaldagi JKda nazarda tutilgan jazoni yengilrog'i

bilan almashtirish institutini farqlarini quyidagilarda ko'rsatishimiz mumkin.

- O'zbekiston SSRning 1926 yilgi JKda o'talmagan jazoni yengilrog'i bilan almashtirish jazodan muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilishning bir turi sifatida ko'rsatilgan. Amaldagi JKda esa ular jazodan ozod qilishning alohida-alohida turlari hisoblanadi.

- Almashtirilishi mumkin bo'lgan jazolarda. O'zbekiston SSRning 1926-yilgi JKda qaysi jazolar almashtirilishi aniq ko'rsatilmagan. Amaldagi JKda esa faqatgina axloq tuzatish ishlari yoki ozodlikdan mahrum qilish jazolari boshqa yengilroq jazoga almashtirilishi mumkin.

- Jazoni yengilrog'i bilan almashtirish uchun tayinlangan jazoni amalda o'talishi lozim bo'lgan muddatlarda. O'zbekiston SSRning 1926 yilgi Jinoyat kodeksida bu muddatlar har qanday jinoyat uchun tayinlangan har qanday mudofaa sotsial chorasining kamida uchdan birini tashkil etgan. Amaldagi JKda esa bu muddatlar jinoyatlarning ijtimoiy xavflilik darajasi va alohida jinoyatlar uchun tayinlangan jazolarga nisbatan har xil muddatlar belgilangan.

- Jazoni yengilrog'i bilan almashirish qo'llanilishi mumkin shaxslar doirasi.

O'zbekiston SSRning 1926 yilgi Jinoyat kodeksida jazoni yengilrog'i bilan almashtirilishi mumkin bo'lmagan shaxslar toifasi belgilanmagan edi. Amaldagi jinoyat qonunida esa jazoni yengilrogi bilan almashtirilishi mumkin bo'lmagan shaxslar doirasi sanab o'tilgan.

Bundan tashqari, O'zbekiston SSRning 1926-yilgi Jinoyat kodeksida voyaga yetmaganlarga nisbatan jazoni



yengilrog'i bilan almashtirish institutini qo'llash alohida tartibda ko'rsatilmagaligi bilan ajralib turadi. Amaldagi jinoyat qonunida esa voyaga yetmaganlarning jismoniy va aqliy rivojlanish darajasi hisobga olinib, Jinoyat kodeksining VI bo'limida voyaga yetmagan shaxslarning jinoiy javobgarligining o'ziga xos xususiyatlari belgilab berilgan. Xususan, o'n sakkiz yoshga to'lmasdan turib jinoyat sodir etganlarga nisbatan jazodan ozod qilishning jazoni yengilrog'i bilan almashtirish turini qo'llash asoslari va tartibi alohida normada JKning 90-moddasida belgilangan.

1959-yil 21-mayda qabul qilingan O'zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasi Jinoyat kodeksida quyidagi jazodan ozod qilish turlari mavjud bo'lgan:

- 1) Shartli ravishda hukm qilish (43-modda);
- 2) Muddatidan ilgari shartli ravishda jazodan ozod qilish va jazoni yengilrog'i bilan almashtirish (50-modda);
- 3) Ozodlikdan mahrum etish joylaridan shartli ravishda ozod qilish, mahkumni mehnatga majburan jalb qilish (50²-modda);
- 4) O'n sakkiz yoshga yetmasdan jinoyat qilgan shaxslarni muddatidan ilgari shartli ravishda jazodan ozod qilish va ularni jazosini yengilroq jazo bilan almashtirish (51-modda);
- 5) Jazoni o'tashdan ozod qilish (52-modda).

Shuni ta'kidlash lozimki, 1959 yildagi Jinoyat kodeksining to'rtinchi bo'limi "Jazo tayinlash va jazodan ozod qilish to'g'risida" deb nomlanib, ushbu bo'limda jazo tayinlash, javobgarlikdan ozod qilish va jazodan ozod qilish bir-

biriga aralashib ketgan va ularga aniqlik yetishmaydi.

Jazoni yengilrog'i bilan almashtirish instituti 1959-yil 21-mayda qabul qilingan O'zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasi Jinoyat kodeksining 50-moddasida jazodan muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilish va jazoni yengilrog'i bilan almashtirish jazodan ozod qilishning turlari sifatida mustahkamlangan.

"Agar ozodlikdan mahrum qilish, axloq tuzatish ishlariga, surgunga, badarg'a qilishga yoki intizomiy batalonga yuborishga hukm qilingan shaxs namunali axloqi va mehnatga halol munosabati bilan tuzalganligini isbotlansa tayinlangan jazoning kamida yarmini amalda o'tagandan so'ng uni sud tayinlagan jazodan muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilish yoki o'talmagan jazoni yengilroq jazo bilan almashtirish mumkin. Shu bilan birga sudlangan shaxs surgun, badarg'a va ma'lum mansabni egallash yoki ma'lum ish bilan shug'ullanish huquqidan mahrum qilish yoki ota-onalik huquqidan mahrum qilish kabi qo'shimcha jazolardan ham ozod qilinishi mumkin.

Quyidagi jinoyatlar uchun hukm qilingan shaxslarga jazodan muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilishni yoki o'talmagan jazoni yengilroq jazo bilan almashtirishni belgilangan jazoning kamida uchdan ikki qismi amalda o'tagandan so'nggina qo'llanish mumkin: davlatga qarshi alohida xavfli jinoyatlar (54-63-moddalar), banditizm (67-modda), ommaviy taribsizlik (69-modda), qalbaki pul yoki qimmatbaho qog'ozlar tayyorlash yoki sotish (77-modda), qasddan odam o'ldirish (80 va



81-moddalar), qasddan badanga og'ir shikast yetkazish (88-modda), nomusga tegish (94-modda ikkinchi qism), bosqinchilik qilish (116-modda "b" va "v" bandlari, 127-modda "b" va "v" bandlari), talonchilik qilish (115-modda "v" bandi va 126-modda "v" bandi), o'g'irlik (114-modda "v" bandi va 125-modda "v" bandi), o'zlashtirish yoki rastrata (117-modda "v" bandi) firibgarlik (119-modda "b" bandi), mansabni suiste'mol qilish yo'li bilan davlat yoki jamoat mulkini qonunsiz o'z mulki qilib qaratib olish (118-modda ikkinchi qism), boshliqqa nisbatan zo'rlik ishlatish (230-modda birinchi qism), shuningdek ashaddiy bezorilik uchun ikki marta sud bo'lganlar (204-modda ikkinchi qism).

Muddatidan ilgari shartli ozod qilingan shaxs jazoning o'talmagan qismi davomida ilgari qilgan jinoyat singari yoki undan yengil bo'lmagan jinoyat sodir qilsa, sud ushbu kodeksning 41-moddasida ko'rsatilgan tartibda jazo tayinlaydi.

Jazo muddatidan ilgari shartli ozod qilish va o'talmagan jazo qismini yengilroq jazo bilan almashtirish alohida xavfli retsidivistlarga qo'llanilmaydi (23-modda ikkinchi qism)".

Yuqoridagi O'zbekiston SSRning 1959 yilda qabul qilingan Jinoyat kodeksida nazarda tutilgan jazoni yengilrog'i bilan almashtirish asoslari institutini amaldagi JKda nazarda tutilgan jazoni yengilrog'i bilan almashtirish institutini farqlarini quyidagilarda ko'rsatishimiz mumkin.

1) Almashtirilishi mumkin bo'lgan jazolarda. O'zbekiston SSRning 1959-yilgi Jinoyat kodeksida ozodlikdan mahrum qilish, axloq tuzatish ishlariga,

surgunga, badarg'a qilishga yoki intizomiy batalonga yuborish jazolari boshqa yengilroq jazo bilan almashtirilishi mumkin. Amaldagi Jinoyat kodeksida esa faqatgina axloq tuzatish ishlari, ozodlikni cheklash yoki ozodlikdan mahrum qilish jazolari boshqa yengilroq jazoga almashtirilishi mumkin.

2) Jazoni yengilrog'i bilan almashtirish uchun tayinlangan jazoni amalda o'talishi lozim bo'lgan muddatlarda. O'zbekiston SSRning 1959-yilgi Jinoyat kodeksida bu muddatlar amaldagi Jinoyat kodeksida nazarda tutilgan muddatlardan ko'ra ko'proq muddatni tashkil etgan. Ilgarigi Jinoyat kodeksida eng kam muddat tayinlangan jazoning kamida yarmini tashkil etgan. Bu farq ham amaldagi jinoyat qonunimizning liberal ruhda ekanligini, insonparvar tamoyillarni aks ettirganligini tasdiqlaydi.

3) Jazoni yengilrog'i bilan almashirish qo'llanilishi mumkin bo'lgan shaxslar doirasi. O'zbekiston SSRning 1959-yilgi Jinoyat kodeksida jazoni yengilrog'i bilan almashtirilishi mumkin bo'lmagan shaxslar sifatida alohida xavfli retsidivistlarga belgilangan edi. Amaldagi jinoyat qonunida esa jazoni yengilrog'i bilan almashtirilishi mumkin bo'lmagan shaxslar doirasi ko'proqni tashkil etadi. Xususan jazoni yengilrog'i bilan almashtirish quyidagi shaxslargi nisbatan qo'llanilmaydi:

a) umrbod yoki uzoq muddatga ozodlikdan mahrum qilishga hukm etilgan shaxsga;

b) o'ta xavfli retsidivistga;

v) uyushgan guruh yoki jinoiy uyushmaning tashkilotchi va qatnashuvchilariga;



g) javobgarlikni og'irlashtiradigan holatlarda qasddan odam o'ldirganlik, o'n sakkiz yoshga to'lmagan jabrlanuvchining nomusiga tekkanlik yoki unga nisbatan zo'rlik ishlatib, jinsiy ehtiyojni g'ayritabiiy usulda qondirganlik, o'n sakkiz yoshga to'lmagan shaxsni jinsiy aloqada bo'lish yoki jinsiy ehtiyojni g'ayritabiiy usulda qondirish bilan bog'liq holda jinsiy aloqa qilishga majbur etganlik, o'n olti yoshga to'lmagan shaxs bilan jinsiy aloqa qilganlik yoki jinsiy ehtiyojni g'ayritabiiy usulda qondirganlik yoki unga nisbatan uyatsiz-buzuq harakatlar qilganlik, voyaga yetmagan shaxs tavsiflangan yoki tasvirlangan pornografik mahsulotni tarqatish, reklama qilish, namoyish etish maqsadida O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kirganlik, xuddi shuningdek uni tayyorlaganlik, tarqatganlik, reklama qilganlik, namoyish etganlik yoxud voyaga yetmagan shaxsni pornografik xususiyatga ega harakatlarning ijrochisi sifatida jalb etganlik, voyaga yetmagan shaxsni jalb etgan holda qo'shmachilik qilganlik, fohishaxonalarni tashkil etganlik yoki saqlaganlik, O'zbekiston Respublikasiga, tinchlikka va insoniyat xavfsizligiga qarshi jinoyat sodir etganlik, yadroviy, kimyoviy, biologik va boshqa xildagi ommaviy qirg'in qurollarini, shunday qurollarni ishlab chiqarish uchun foydalanish mumkinligi ayon bo'lgan material va uskunalarni, kontrabanda qilganlik uchun hukm qilingan shaxslarga nisbatan qo'llanilmaydi.

4) O'zbekiston SSRning 1959-yilda qabul qilingan Jinoyat kodeksida jazoning qolgan qismini yengilrog'i bilan almashtirish alohida normada

belgilanmasdan, muddatidan ilgari shartli ravishda jazodan ozod qilish bilan birgalikda ushbu kodeksning 50-moddasida berilgan edi. Amaldagi jinoyat qonunida esa ular alohida-alohida moddalarda berilgan (Jinoyat kodeksining

73-moddasida jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish, 74-moddasida jazoni yengilrog'i bilan almashtirish belgilangan. Ularni alohida moddalarda berilganligi asoslidir. Chunki bu ularning har birining qo'llanish tartibi va oqibatlari har xildir.

Buni quyidagilarda ko'rishimiz mumkin:

a) almashtiriladigan yoki ozod qilinadigan jinoiy jazolarda. Jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilishda shaxsga nisbatan tayinlangan ozodlikdan mahrum qilish, ozodlikni cheklash, intizomiy qismga jo'natish, xizmat bo'yicha cheklash yoki axloq tuzatish ishlari jazolarini o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilsa, jazoni yengilrog'i bilan almashtirishda esa faqatgina ozodlikdan mahrum qilish, ozodlikni cheklash yoki axloq tuzatish ishlari Jinoyat kodeksi 43-moddasiga asosan ulardan yengilroq turdagi jazo turi bilan almashtiriladi.

b) Jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilishda jazolarning o'talmagan muddati uchun shaxsga nisbatan Jinoyat kodeksida nazarda tutilgan biron bir chora tayinlanmasdan ozod qilinsa, Jazoni yengilrog'i bilan almashtirishda esa Jinoyat kodeksining ozodlikdan mahrum qilish, ozodlikni cheklash yoki axloq tuzatish ishlari Jinoyat kodeksi 43-moddasiga asosan ulardan yengilroq turdagi jazo turi bilan almashtiriladi.



v) sudlanganlik holatining tugallanishida. Jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilingan shaxsning sudlanganlik muddati jazodan muddatidan ilgari shartli ozod qilingan kundan boshlansa, Jazoni yengilrog'i bilan almashtirilgan shaxsning sudlanganlik muddati yengilroq jazo bilan almashtirilgan jazo muddati tamom bo'lgandan keyin boshlanadi.

O'zbekiston Respublikasining amaldagi Jinoyat kodeksi 1994-yil 22-sentabrda qabul qilingan bo'lib, u jazzoni yengilrog'i bilan almashtirishni oldingi jinoyat qonunlaridan keskin farq qiluvchi jihatlarni o'rnatdi.

Mamlakatimizda jinoyat qonunining tubdan liberallashtirilishi ayniqsa 2001-yilda qabul qilingan "Jinoiy jazolarning liberallashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Jinoyat, Jinoyat-protsessual hamda Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga o'zgartishlar va qo'shimchalar kiritish haqida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni asosida oldinga katta qadam tashlashga erishdi.

O'zbekiston Respublikasining 2001-yil 29-avgustdagi "Jinoiy jazo choralari liberallashtirish munosabati bilan Jinoyat kodeksi, JPK va MJTKlarga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish to'g'risida"gi qonuni O'zbekiston Respublikasining jinoyat va jazo to'g'risidagi qonunchiligini takomillashtirish, uni liberallashtirish borasida fundamental asos bo'lib xizmat qiladi. Jinoyat huquqida jazodan ozod qilish instituti rivojlanish tarixini o'rganish uning rivojlanish tarixida mavjud bo'lgan u yoki bu jazodan ozod qilish turini zaruratga ko'ra milliy qonunchilikka tatbiq etilishi masalalarini

ko'rib chiqish imkonini beradi. Bu boradagi fikrni ma'qullagan ayrim olimlar aybdorni kafillikka berishda ifodalanadigan jazodan ozod qilish turini jinoyat qonunchiligida aks ettirish lozimligini qayd etishadi. Ularning fikricha jazodan ozod qilishning mazkur turi jabrlanuvchining sog'lig'i va hayotiga xavfli bo'lmagan hamda og'ir oqibatlarini keltirib chiqarmagan jinoyatlarni birinchi marta sodir etgan shaxslarga nisbatan qo'llanilishi lozim.

Milliy jinoyat qonunchiligi tarixida aybdorni kafillikka berish orqali shaxsni jinoiy jazodan emas, balki jinoiy javobgarlikdan ozod qilish holati mavjudligi kuzatiladi. Jumladan, 1959-yildagi O'zSSR Jinoyat kodeksining 49-moddasida shaxsni jamoat tashkilotlariga kafillikka berish nazarda tutilgan bo'lib, unga ko'ra, yuridik shaxs va undagi mehnat jamoasi dastlabki tergov organlariga yoki sudga iltimosnoma bilan murojaat qilib, ijtimoiy xavfli bo'lmagan jinoyat sodir qilgan o'z xodimini qayta tarbiyalash va axloqan tuzatish uchun kafillikka olishini bildirar edi. Bugungi kunda kafillikka berishda fiodalnadigan shaxsni jinoiy javobgarlikdan ozod qilish turini kiritish ham ilgari surilmoqda.

Mamlakatimiz mustaqillikni qo'lga kiritgach 1994-yil 22-sentabrda O'zbekiston Respublikasining yangi, yuqorida ko'rsatilgan kodekslardan farq qiluvchi Jinoyat kodeksi qabul qilindi. Unga muvofiq ashaddiy va oddiy jinoyatchilarni javobgarligi differensiyalashtirilgan holda jinoiy javobgarlik va jazodan ozod qilishning yangi turlari kiritildi. Jinoyat kodeksida jazodan ozod qilish alohida 13-bobda nazarda tutilib, 1959-yilgi Jinoyat



kodeksidan faqrli ravishda jazodan muddatidan ilgari shartli ozod qilish (73-modda) va jazoni yengilrog'i bilan almashtirish (74-modda) alohida normalarda nazarda tutildi. Unga ko'ra muddatidan ilgari shartli ozod qilish qo'llanishi mumkin bo'lgan jazo turlari ham o'zgarib, ozodlikdan mahrum qilish, intizomiy qismga jo'natish, xizmat bo'yicha cheklash yoki axloq tuzatish ishlariga hukm qilingan shaxslarga nisbatan jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish qo'llanishi mumkin. Shuningdek qo'shimcha jazodan ham ozod qilish qo'llanishi mumkin.

Jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilish ushbu moddaning birinchi qismida ko'rsatilgan jazo turlari uchun o'rnatilgan tartib-qoida talablarini bajargan va mehnatga halol munosabatda bo'lgan mahkumga nisbatan qo'llaniladi.

Jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilish yuqorida ko'rsatilgan jazo turlari uchun o'rnatilgan tartib-qoida talablarini bajargan va mehnatga halol munosabatda bo'lgan mahkumga nisbatan qo'llaniladi. Shuningdek, muddatidan ilgari shartli ozod qilish qo'llanishi mumkin bo'lmagan shaxslar doirasi ham ancha qisqartirildi. O'zbekiston Respublikasining 2007-yil 24-sentabridagi O'RQ-115-son Qonuniga ko'ra "giyovandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni kontrabanda qilish, shuningdek giyovandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni ozginadan ko'proq miqdorda g'ayriqonuniy ravishda sotish uchun hukm qilinganlar"ga ham jazodan ozod

qilishning mazkur turini qo'llashga ruxsat berildi.

Biroq, milliy sud amaliyotida garchi jinoiy jazodan ozod qilish turi sifatida jinoyat qonunchiligida aks etmagan bo'lsa-da, kafillikka berish orqali aybdorni jinoiy javobgarlikdan emas, balki jazodan ozod qilish amaliyoti mavjudligini ko'rish mumkin. Buni "Oliy sudning Xotin-qizlar qo'mitasi, Yoshlar ittifoqi, Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo'yicha respublika kengashi bilan tuzilgan Memorandumga asosan qilmishidan chin ko'ngildan pushaymon bo'lgan sudlanuvchilarni ozodlikka chiqishiga imkon berilib, jamiyatga foydasi tegadigan mehnat bilan shug'ullanish sharoiti yaratilayotganligi,mazkur idoralar kafilligi asosida 2019-yil 1-choragi mobaynida jinoyat ishlari bo'yicha sudlar tomonidan 104 nafar ayollarga nisbatan shartli hukm o'qilgan"ligi bilan izohlash mumkin. Bu kabi holatlarga oid yana birinchi marta jinoyat sodir etgan yoshlarga nisbatan shartli hukm qo'llash amaliyotini ham ko'rish mumkin. Amaldagi jinoyat qonunchiligida shartli hukm qilish jinoiy jazodan ozod qilishning bir turi ekanligini inobatga olib yuqoridagi holatlarda kafillik orqali shaxsni jazodan ozod qilish amaliyoti mavjud, degan xulosaga kelish mumkin. Biroq, nazarimizda kafillikka berish orqali shaxsni jinoiy jazodan ozod qilish turining jinoyat qonunchiligiga kiritilishi mazkur institutni takomillashtirishga xizmat qiladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib jazodan ozod qilish institutining rivojlanish tarixini shartli ravishda quyidagi bosqichlarga bo'lish mumkin:



– islomgacha bo'lgan davr – zardushtiylilik dinining ta'siri bilan tavsiflanadi;

– shariat normalari amal qilgan davr – islomning tarqalishi va islom jinoyat huquqining ta'siri bilan bog'liq;

– chor Rossiyasi hukmronligi davri – shariatning ta'siri va 1903-yil Ulojenie (Уголовное уложение) normalari amal qilishi;

– sovet davri – 1926 va 1959-yildagi jinoyat qonunlarining amal qilishi;

– mustaqillik davri – 1994-yilda O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi qabul qilinishi bilan boshlanadi.

Jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilishning tarixini o'rganish

quyidagi xulosalarga imkon beradi: jazodan ozod qilishning mazkur turi jinoyat qonunchiligimiz tarixidagi 1926, 1959, 1994-yillardagi Jinoyat kodekslarining barchasida nazarda tutilgan; barcha davlarda jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish uchun jazoning amalda o'talgan qismi va mahkumning mehnatga xalol munosabatda bo'lishi va tuzalish yo'liga o'tgan bo'lishi talab etilgan; jazodan ozod qilish sudlar tomonidan jazoni ijro etuvchi muassasa taqdimnomasiga ko'ra amalga oshirilgan; jazodan ozod qilish qo'llanishi mumkin bo'lgan shaxslar doirasi turli vaqtlarda davlatdagi siyosat, mavjud vaziyatdan kelib chiqib o'zgarib borgan.

References:

1. Niyazova Sh.G. Muddatlarning o'tganligi munosabati bilan jinoiy javobgarlik va jazodan ozod qilish muammolari: Diss...yur. fan. nomzodi. -Toshkent.: 2010. -B.117.
2. Аскеров Э. Ю. Уголовно-правовые проблемы освобождения от наказания. М., 2005. С. 120.
3. Наумов А. В. Российское уголовное право. Курс лекций: в 2 т. Т. 1: Общая часть. М., 2004. С. 336.
4. Уголовный кодекс Российской Федерации (с изменениями на 8 марта 2015 год). <https://srhr.org>
5. Berdiyev Sh. Amnistiya akti uning asosida jinoiy javobgarlikdan ozod qilishning o'ziga xos xususiyatlari // Oliy sud axborotnomasi.-Toshkent,2008. -№1. -B.1.
6. Усмонов Дониёр Махмудович. Шартли хукм қилиш институтининг назарий, ҳуқуқий ва амалий жиҳатларини такомиллаштириш. Юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. –Т., 2020. –Б.11.
7. Crimes and criminal procedure code of USA. <https://www.law.cornell>